O’zbekning o’zligini ko’rsatadigan bayram

Har bir xalqning milliy o’ziga xosligini ko’rsatadigan an’ana va marosimlari, urf-odat va bayramlari bor. Ming yillar davomida sayqallanib, ajdodlardan avlodlarga o’tib kelgan bunday an’analar aslida o’sha millatning o’zligini, mentalitetini belgilaydi. Navro’zi olam xalqimiz hayotidan mustahkam o’rin egallagan, uning ruhiyatini, ma’naviy qiyofasini namoyon etadigan azaliy bayramimizdir.

Ko’klam nafasi ufurib, yashil umidlar kurtaklana boshlagan shu kunlarda butun borliqda ajib jonlanish hukmronlik qiladi. Nafaqat borliqda, balki dillarda ham o’zgacha surur, jilolanish, nimadandir umidlanish tuyg’ulari mehmon bo’ladi. Bu yurtga bahor nashidasi shunday tashrif buyuradi. Navro’zning inson vujudiga yangi kuch, uning tomiriga, qon-qoniga hayot quvonchi, yaratuvchilik kayfiyatini olib kelishining boisi azal-azaldan tabiatdagi uyg’onish, qayta tirilish bilan bog’liq kelishidir.



Xalqimizda Navro’zning qanday nishonlanganiga oid ilk dalillar arxeologik yodgorliklar, qoyatoshlarga chizilgan suratlarda uchraydi. Yana biri Quyosh va Oy hamda fonologik taqvimlarda yashab kelmoqda. Farg’onada qoyatoshga chizilgan bir surat olimlar diqqatini tortgan. Bu surat boshida nur sochayotgan Quyosh odam va uning atrofida raqsga tushayotgani 12 ta kishini aks ettirgan. Bu surat ajdodlarimizning quyosh va uning atrofida 12 oy aylanishini ifodalagan axborot ekanligi tadqiqotlarda yozilgan.

Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar, Mahmud Koshg’ariyning “Devoni lug’otit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg’u bilig”, Nosiruddin Rabg’uziyning “Qissasi Rabg’uziy”, Alisher Navoiy asarlarida kelgan Navro’z bilan bog’liq ma’lumotlar yoki badiiy talqinlar, hamda qadimgi xitoy, eron, arab manbalarida yozib qoldirilga ma’lumotlar Navro’z xalqimizning qadimiy, asl bayrami ekanligiga guvohlik beradi.

Sobiq sho’rolar davrida navro’zga bo’lgan munosabatni ko’pchilik unutgani yo’q. O’n yillar davomida u xalqdan chetga surib qo’yildi. Bu qatag’onda maqsad xalqni o’z xotirasidan, ruhiy quvvatidan uzish ekanligi hech kimga sir emas. Chunki xotirasidan ayrilgan xalqni qulga aylantirish qiyin emas. Natijada Navro’z unitish darajasiga yetgan avlodlar paydo bo’ldi.

Mustaqillik avvalo, avlodlar o’rtasidagi xotira zajiridagi uzilishni qayta bog’ladi. Xalq ruhiyati yana milliy zamindan oziqlana boshladi. Shunday bo’ldiki, xalq bilan birga Navro’zda yangilanish yuz berdi: u umumxalq bayrami sifatida nishonlana boshladi. Azalda ham Navro’z xalq sayli tarzida o’tkazilgan. Chunki sayil, tomoshalarning ma’naviy ahamiyati ulug’. Bayramdan kishilar ulkan ma’naviy oziq olgan, Navro’z qanday qarshilansa, yil davomida shu kayfiyat hukm surishi isbotlangan. Navro’z asl mazmun-mohiyatiga uyg’un ayni vaqtda zamonga mos nishonlanmoqda. Natijada azaliy bayramimiz yangi bir quvvatga kirdi. O’zbekning ma’naviy qiyofasini ko’rsatadigan katta ma’naviy hodisaga aylandi. Dunyo bu bayram orqali bizning qanday xalq ekanimizni, jahon tamaddunida nechog’li o’rin tutishimizni bilayapti, kashf etyapti.

O’zR FA O’zbek tili, adabiyoti va folklori instituti ilmiy xodimi,

f.f.d. Shomirza TURDIMOV.